

“TASDIQLANGAN”
“Toshkent Invest kompaniyasi”
aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorning
2025-yil 2 - fevraldagi
2-sonli qarori bilan

“Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining
“Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to‘lash tartibi
to‘g‘risida”
Nizom

Toshkent – 2026 yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1. “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyatining “Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to’lash tartibi to’g’risida” Nizom (keyingi o’rinlarda – Nizom) O’zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to’g’risida” va “Davlat mulkini boshqarish to’g’risida” Qonunlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari hamda “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati Ustavi va “Kuzatuv kengashi to’g’risida” Nizomi, shuningdek Korporativ boshqaruv kodeksi va Davlat ishtirokidagi korxonalar uchun Korporativ boshqaruv qoidalari tavsiyalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.2. Mazkur Nizom “Toshkent Invest kompaniyasi” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o’rinlarda – Kompaniya) Kuzatuv kengashi a’zolariga ular o’z vazifalarini bajarib turgan davr uchun haqi to’lash va o’z vazifalarini bajarish bilan bog’liq xarajatlarining o’rnini qoplash uchun kompensatsiya qilish, shuningdek to’lanadigan haq va kompensatsiyalarning miqdorini belgilaydi.

1.3. Kuzatuv kengashi a’zolariga to’lanadigan haq va kompensatsiyalar ularning shaxsiy bank hisobvarag’iga (plastik kartasiga) pul mablag’larini o’tkazish orqali milliy valyuta so’mida Kompaniyaning joriy xarajatlari hisobidan amalga oshiriladi.

1.4. Kuzatuv kengashi a’zolariga to’lanadigan haq xorijiy valyuta ekvivalentida belgilanadi, agar Kuzatuv kengashi a’zolari xarajatlarni xorijiy valyutada amalga oshirgan bo’lsa, Kompaniya tomonidan haq va kompensatsiyalar milliy valyuta so’mida to’lov amalga oshiriladigan sanadagi O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo’yicha to’lanadi.

1.5. Mazkur Nizomga muvofiq to’lanadigan haq va kompensatsiyalarning cheklangan miqdori Kompaniyaning yillik biznes-rejasida (budjetida, xarajatlar smetasida va boshqa tegishli hujjatlarda) tasdiqlanishi shart.

1.6. Mazkur Nizomga muvofiq amalga oshiriladigan to’lovlar miqdori jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’ini hisobga olmaydi va qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi. To’lovlar hisoblanishida ularning miqdoriga qonunchilikka muvofiq soliqlar hisoblab chiqiladi va Kompaniya soliq agenti sifatida soliq to’lovlarini amalga oshiradi.

1.7. Mazkur Nizomga muvofiq haq va kompensatsiyalar to’lash uchun hisob-kitob davri kalendar yil hisoblanadi.

1.8. Kompaniya Kuzatuv kengashi a’zolariga haq ularning kalendar yil davomida Kuzatuv kengashi a’zoligi vakolati amalda bo’lgan davri uchun kalendar kunlari hisobida mutanosib ravishda amalga oshiriladi.

1.9. Kuzatuv kengashi a’zolariga haq va kompensatsiyalar to’lanishi mazkur Nizom, shu jumladan Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari bilan ularning Kuzatuv kengashi a’zoligi bo’yicha tuzilgan shartnoma (kelishuv) asosida Kompaniya Kuzatuv kengashi a’zoligi vakolati boshlangan kundan tugagan kungacha amalga oshiriladi.

1.10. Kuzatuv kengashi a'zolariga to'lanadigan haq va kompensatsiyalarni hisob-kitob qilish uchun ma'lumotni o'z vaqtida taqdim qilinishi uchun javobgarlik Kompaniya Kuzatuv kengashi kotibiyatiga yuklatiladi.

1.11. Kuzatuv kengashi a'zolariga haq va kompensatsiyalarni to'g'ri hisob-kitob qilish va to'lash uchun javobgarlik Kompaniya xodimlariga ish haqi hisoblash va to'lashni amalga oshiruvchi Kompaniyaning tegishli tarkibiy bo'linmasi va unga bevosita rahbarlik qiluvchi Boshqaruv a'zosi hamda ichki audit xizmatiga yuklatiladi.

1.12. Kuzatuv kengashi a'zosi yozma arizasi bilan unga mazkur Nizomga muvofiq to'lanishi lozim bo'lgan haq va kompensatsiyalaridan to'liq yoki qisman voz kechishi yohud ularni xayriya maqsadlariga yo'naltirishi mumkin.

1.13. Kuzatuv kengashi a'zolari mazkur Nizomda belgilangan hollardan tashqari o'z vakolatlarini amalga oshirganligi uchun boshqa haq va (yoki) kompensatsiyalarni olishga haqli emas, bundan Kompaniya Yagona aksiyadorining qarori bilan to'landigan haq va (yoki) kompensatsiyalar mustasno.

1.14. Ushbu Nizom faqat Jamiyat Kuzatuv kengashining mustaqil a'zolariga tatbiq etiladi agar amaldagi qonunchilikda boshqacha tartib ko'zda tutilmagan bo'lsa.

2-bob. Haq to'lash tamoyillari

2.1. Mustaqil a'zolarga haq to'lash quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- a) qonunchilikka rioya qilish;
- b) shaffoflik va oshkoralik;
- c) manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik;
- d) motivatsiyani ta'minlash.

3-bob. Haq to'lash turlari va miqdori

3.1. Mustaqil a'zolarga quyidagi to'lovlar belgilanadi:

a) Asosiy choraklik haq – Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari har biriga kalendar yilning har choragi uchun 4500 (to'rt ming besh yuz) AQSh dollari ekvivalenti miqdorida.

b) Qo'shimcha (o'zgaruvchan) choraklik haq (1, 2, 3 har chorak yakuni bo'yicha) – Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari har biriga kalendar yilning har choragi uchun 4500 (to'rt ming besh yuz) AQSh dollari ekvivalenti miqdorida.

c) Qo'shimcha (o'zgaruvchan) yillik haq (shu jumladan 4-chorak yakuni bo'yicha) – Kuzatuv kengashi mustaqil a'zolari har biriga kalendar yilning 4-choragi uchun 4500 (to'rt ming besh yuz) AQSh dollari ekvivalenti miqdorida.

4-bob. Tasdiqlash va to'lash asoslari

4.1. A'zolarga choraklik va yillik (shu jumladan 4-chorak yakuni bo'yicha) haq to'lovlar berish masalasi Jamiyat ichki audit xizmati xulosasi bilan Kadrlar

va mukofotlash qo'mitasi hamda Audit qo'mitasiga ko'rib chiqish uchun kiritiladi.

4.2. Qo'mitalar a'zolarga choraklik va yillik haq to'lovlari berish bo'yicha ichki audit xulosasini ko'rib chiqqib, Kuzatuv kengashi va yagona aksiyadorga tegishli tavsiyalar beradi.

4.3. A'zolarga haq to'lash bo'yicha qaror faqat Kuzatuv kengashi tomonidan, ichki audit xulosasi va Qo'mitalar tavsiyalari asosida qabul qilinadi.

4.4. A'zolarga haq to'lovlarini ushbu nizom talablari bo'yicha to'g'ri hisoblash uchun mas'uliyat Jamiyatning ichki audit xizmati hamda Kuzatuv kengashi qo'mitalariga yuklatiladi.

4.5. Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragida sababsiz ravishda Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalarining birorta ham yig'ilishda ishtirok etmagan, yoki hisobot choragida yig'ilishlar umuman tashkillashtirilmagan taqdirda, ushbu davr uchun Asosiy choraklik haq to'lanmaydi.

5-bob. To'lash tartibi va muddatlari

5.1. Chorak bo'yicha asosiy va qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq hisobot choragi yakunlanganidan keyin, Jamiyatning choraklik va yillik hisoboti, ichki audit xulosasi, Qo'mitalar va Kuzatuv kengashining tavsiyalari hamda yagona aksiyador qarori asosida to'lanadi. Bunda, Kuzatuv kengashi a'zosining vakolati hisobot choragi yoki kalendar yili tugagunga qadar tugatilgan bo'lsa unga qo'shimcha (o'zgaruvchan) choraklik haq to'lanmaydi.

5.3. To'lovlar naqd pulsiz shaklda, a'zolarning bank hisob raqamlariga o'tkaziladi hamda buxgalteriya hisobida qonunchilikka muvofiq aks ettiriladi.

5.4. Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga to'lanadigan qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq ularning Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi hamda Kompaniyaning faoliyatida faol ishtiroki uchun yillik miqdori asosida to'lanadi.

5.5. Kuzatuv kengashi a'zolarining Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki ularning mazkur majlislarda haqiqatan (shaxsan) ishtirok etganligidan hamda qo'mitalarni yig'ilishlarini **o'zlari tashkil etib, yig'ilish bayonlarini o'z vaqtida rasmiylashtirib**, kompaniyani ijroiya organiga hamda Kuzatuv kengashiga yoki yagona aksiyadorga **o'z vaqtida taqdim etganidan kelib chiqib belgilanadi**. Bunda, a'zo Kuzatuv kengashining o'zi a'zo bo'lgan qo'mitalari (Audit qo'mitasi, tayinlovlar va haq to'lash qo'mitasi, Strategiya va investitsiyalar qo'mitasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo'mitasi) ishida (har bir yig'ilishida) faol **ishtirok etishi va tegishli qo'mita bayonlarini imzolashi shart**.

5.6. Kuzatuv kengashi a'zosiga Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun hisobot choragida to'lanadigan qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq:

30 foizga kamaytiriladi, agar Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 1/3 va undan kam qismida ishtirok etmagan bo'lsa;

60 foizga kamaytiriladi, agar Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 1/3 qismidan ko'prog'ida ishtirok etib, 2/3 va undan kam qismida ishtirok etmagan bo'lsa;

to'lanmaydi, agar Kuzatuv kengashi a'zosi hisobot choragidagi Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislarining 2/3 qismidan ko'prog'ida ishtirok etmagan bo'lsa;

to'lanmaydi, agar hisobot choragi yakuni bo'yicha Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalarining majlisi o'tkazilmagan bo'lsa.

5.7. Kuzatuv kengashi a'zolarining har biriga kalendar yil uchun (4-chorak yakuni bo'yicha) to'lanadigan kalendar yildagi ishlar natijasi bo'yicha qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq hisobot yilidagi Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baxolovchi nashkilot tomonidan o'tkaziladigan baholash natijalariga ko'ra to'lanadi.

5.8. Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalari bo'yicha mustaqil baholovchi tashkilotning xulosasiga ko'ra baholash natijasi "yuqori" (600-1200 ball yoki 50-100%) deb tan olingan bo'lsa, mazkur xulosa Yagona aksiyadorining qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab bir oy davomida Kompaniya tomonidan Kuzatuv kengashi a'zolari har biriga hisobot kalendar yili uchun kalendar yildagi ishlar natijasi bo'yicha haq mazkur Nizom 3.1.-bandida belgilangan miqdorida hisoblanadi va mazkur Nizom 5.6.-bandida belgilangan tartibda Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari majlislaridagi faol ishtiroki uchun to'lanadigan choraklik qo'shimcha (o'zgaruvchan) haq hisobot kalendar yili davomida qancha summaga kamaytirilgan bo'lsa, shu summaga kamaytirilib to'lanadi. Bunda kamaytiriladigan summa Kompaniyada korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko'ra kalendar yildagi ishlar natijasi bo'yicha hisoblangan haq miqdoridan oshishiga yo'l qo'yilmaydi.

6-bob. Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlarini kompensatsiya qilish tartibi

6.1. Kuzatuv kengashi a'zolari Kuzatuv kengashi raisi bilan oldindan kelishgan holda o'z vazifalarini bajarish, jumladan yashash joyidan tashqarida bo'lgan aksiyadorlarning umumiy yig'ilishlari (Yagona aksiyadornida hamda Kuzatuv kengashi va uning qo'mitalari yig'ilishlarida (majlislarida), shuningdek Kompaniya, aksiyadorlar va Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tashabbus qilingan yig'ilish, forum, konferensiya, taqdimot va boshqa tadbirlarda ishtiroki bilan bog'liq xarajatlari Kompaniya tomonidan kompensatsiya qilinadi.

6.2. Kuzatuv kengashi a'zolari xarajatlari o'rnini qoplash uchun kompensatsiyalarning eng ko'p miqdori quyidagicha belgilanadi:

a) belgilangan joyga borish va doimiy ish yoki yashash joyiga qaytish uchun transport xarajatlariga (transportda yo'lovchilarni majburiy shaxsiy

sug'urtalash uchun sug'urta polisi, yo'l hujjatlarini rasmiylashtirish bo'yicha xizmatlar to'lovi va h.k.):

havo transporti bo'yicha tejamli-klass tarifi miqdorida, agar uch soatdan ko'proq uchish sharoiti bo'lsa biznes-klass tarifi miqdorida;

temir yo'l transporti bo'yicha biznes-klass vagoni tarifi miqdorida;

avtomobil transporti bo'yicha yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan aholi yashaydigan punktdagi transfer yoki bunday aholi yashaydigan punktga eng yaqin aeroport (temir yo'l vokzali), yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan joygacha mehmonxona va qaytish yo'l xarajatlari haqiqiy miqdorida;

b) yig'ilish va tadbirlar o'tkaziladigan davrda, shu jumladan Kuzatuv kengashi a'zosining kelish/ketish kunlari davomida yashash uchun (turar joyni ijarasi bo'yicha) xarajatlariga 4 yulduzli mehmonxonaning "standart" klassidan yuqori bo'lmagan turar-joyni ijaraga olish bo'yicha xarajatlar miqdorida (bunda, Kuzatuv kengashi a'zosi iltimosiga asosan Kompaniya mehmonxonada turar-joyni oldindan band qilib qo'yishga va Kompaniya mablag'lari hisobidan ijara haqini to'lashga haqli);

c) yig'ilish va tadbirlar davomida vakillik xarajatlariga (nonushta, tushlik, kechki ovqat, transport ta'minoti, muzokaralar vaqtida bufet xizmatlarini ko'rsatish, tashkilot shtatida bo'lmagan tarjimon xizmatiga haq to'lash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga) ularning haqiqiy miqdorida (bunda, Kompaniya o'z mablag'lari hisobidan vakillik xarajatlarini kompensatsiya qilmasdan amalga oshirishga haqli);

d) sutkalik xarajatlariga Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq Kompaniya Boshqaruvi uchun belgilangan eng yuqori miqdorda (bunda, Kompaniyaning ichki me'yoriy hujjatlariga muvofiq sutkalik xarajatlarni amalga oshirish talablari inobatga olinadi).

6.3. Kuzatuv kengashi a'zolari sarflangan xarajatlar kompensatsiyasini olish uchun Kompaniya Kuzatuv kengashi kotibiyatiga haqiqiy xarajatlarni tasdiqlovchi hujjatlarning asl nusxasini (bilet/elektron bilet, chiqish taloni, mehmonxonada yashash uchun hisobvaraqlar va h.k.) ilova qilgan holda ariza yuboradi.

6.4. Kuzatuv kengashi kotibiyati mazkur Nizom 6.3-bandida ko'rsatilgan hujjatlar olingan kundan e'tiboran besh ish kunidan kechiktirmay sarflangan xarajatlarni kompensatsiya qilish to'g'risida bildirishnomani olingan hujjatlarni ilova qilgan holda mazkur Nizom 1.11-bandida belgilangan Kompaniya Boshqaruvi a'zosiga yuboradi.

6.5. Kompaniya tomonidan kompensatsiyalar to'lovi Kuzatuv kengashi a'zosidan tegishli hujjatlar olingan sanadan e'tiboran o'n besh ish kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

6.6. Kuzatuv kengashining a'zolariga kompensatsiyalar to'lash mazkur Nizom va Yagona aksiyadorining qarori bilan belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda, Kuzatuv kengashi a'zolari kompensatsiya qilinadigan xarajatlarni oqilona va tejamkor amalga oshirishlari lozim.

7-bob. Axborotni oshkor qilish

7.1. Kompaniya Boshqaruvi Kuzatuv kengashi a'zolariga to'langan haq va kompensatsiyalar to'g'risidagi axborotni qonunchilikka muvofiq oshkor qilinishini ta'minlaydi.

8-bob. Yakuniy qoidalar

8.1. Mazkur Nizom Kompaniya Yagona aksiyadorining qarori bilan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

8.2. Mazkur Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar Kompaniya Yagona aksiyadorining qarori bilan kiritiladi.

8.3. Mazkur Nizomda tartibga solinmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan tartibga solinadi.

8.4. Agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida mazkur Nizomda nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi qoidalari qo'llaniladi.

8.5. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zolari va Kompaniya mazkur Nizomning ijrosi bilan bog'lik yuzaga keladigan nizolar yoki e'tirozlarni muzokaralar orqali qisqa muddatlarda hal qilish maqsadida imkon darajada barcha choralarni ko'rish majburiyatini oladilar. Kompaniya Kuzatuv kengashi a'zosi va Kompaniya o'rtasida o'zaro kelishuv asosida hal qilinmagan mazkur Nizomga tegishli har qanday nizo qonunchilikda belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

8.6. Ushbu Nizom talablarini buzgan shaxslar qonunchilikka muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

8.7. Ushbu Nizom ijrosini nazorat qilish Kuzatuv kengashining Kadrlar va mukofotlash va Audit qo'mitalarga hamda Ichki audit xizmati zimmasiga yuklatiladi.